

KALOM FALSAFASIDA ALLOH SIFATLARINING RATSIONAL TAHLILI

Ulug'murodov Elyor Saydulloevich, Samarqand davlat chet tillar instituti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

RATIONAL ANALYSIS OF THE ATTRIBUTES OF GOD IN THE PHILOSOPHY OF THE WORD

Ulug'murodov Elyor Saydulloevich, Samarkand State Institute of Foreign Languages Doctor of Philosophy (PhD)

РАЦИОНАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ КАЧЕСТВ БОГА В ФИЛОСОФИИ КОРАНА

Улугмуратов Элёр Сайдуллоевич, Самаркандский государственный институт иностранных языков, доктор философских наук



<https://orcid.org/0009-0008-1663-5939>

e-mail:

eulugmurodov@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada kalom ilmining paydo bo'lishi, uning bahs mavzularining shakllanishi, kalom masalalari bo'yicha o'sha vaqtning ko'zga ko'ringan aqidaviy mazhablaridan ahli sunna val jamoa, mu'taziliylar, murji'iyalar, xavorijlar va shialar o'rtasida bo'lgan bahslar falsafiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kalom, Qur'on, sunnat, ahli sunna val jamoa, mu'taziliylar, murji'iyalar, xavorijlar, shialar, aqida, bid'at, ash'ariylar va moturidiylar.

Abstract: In this article, the emergence of the knowledge of the word, the formation of its discussion topics, and the debates between prominent religious sects of that time: Ahl al-Sunna wal Jama'a, Mu'tazilites, Murji'is, Khawarij and Shi'ites on the issues of the word are philosophically analyzed.

Key words: kalam, Qur'an, Sunnah, Ahl al-Sunnah wal Jama'ah, Mu'tazilites, Murji'is, Khawarij, Shias, Aqedah, Bid'ah, Ash'arites and Maturidi.

Аннотация: В данной статье рассматривается появление науки Калом, формирование ее тем для обсуждения, видные религиозные секты того времени по вопросам калама: Ахль ас-Сунна валь Джамаа, мутазилиты, мурджииты, хариджиты и шииты. Философский анализ споров между ними.

Ключевые слова: Калом, Коран, Сунна, люди Сунны, община, мутазилиты, мурджииты, хариджиты, шииты, вера, бидаа, ашариты и матуридиты.

KIRISH. Ilmi kalom paydo bo'lgan vaqtga kelib aqidaga oid masalalarga, avvalgi vaqtlarga o'xshab faqat Qur'on va sunnatdan dalil keltirish bilan kifoyalanish yetmay qolgan edi. Qarshi taraf ratsional, ya'ni sog'lom dalil ham keltirishni talab qilar edi.

Kalom masalalari bo'yicha bahslar musulmon olamidagi o'sha vaqtning ko'zga ko'ringan aqidaviy mazhablari: ahli sunna val jamoa, mu'taziliylar, murji'iyalar, xavorijlar va shialar o'rtasida bo'lgan. Keyinchalik Allohning kalomiga tegishli bahslardan Allohning sifatlariga oid

masalalarga, qazo va qadar masalalariga ham o'tilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI. Kalom ilmi VIII asrda paydo bo'lgan. "Boshqa dinlar hujumidan Islom aqoidi usulini muhofaza qilish natijasida islom ilmlaridan biri kalom ilmi paydo bo'ldi"[1:334].

Kalom ilmi uch bosqichda rivojlangan. Dastlab, kalom ilmi mu'taziliya nomi bilan ma'lum bo'lgan edi. Ikkinchi bosqichda bu ilm ash'ariya kalomi va moturidiya kalomi degan nomlar bilan keng yoyildi.

Kalom ilmi rivojlanishning uchinchi bosqichida falsafa bilan aralash tarzda qorishiq bir ilmga aylandi. Ya'ni o'ziga tegishli masalalarni muhokama qilibgina qolmasdan, ontologiya, gnoseologiya ilmi muammolari bilan ham mashg'ul bo'ldi. Bu yo'lni Imom G'azzoliy boshlab bergan bo'lsa, keyinchalik Shahrisoniy, Fariduddin Balxiy, Faxruddin Roziy, Izzuddin Iyjiy va Imom Taftazoniy kabi olimlar davom ettirdi.

Bugungi kunda ahli sunna val jamoa e'tiqodi bo'yicha amal qiluvchi musulmonlar ikkita yirik maktab – ash'ariylar va moturidiylarga ergashgan. Chunki o'z vaqtida ikki buyuk alloma – Imom Moturidiy va Imom Ash'ariy mo'minlar aqidasi ahli bid'at tashvishidan muhofaza etgan. Ularning izdoshlari bo'lmish qator olimlar ham keyingi asrlarda samarali faoliyat olib borgan.

Jumladan, Imom Boqilloniy (vaf.1013), Juvayniy (vaf.1085), Shahrisoniy (vaf.1153), ar-Roziy (vaf.1209) kabi mutakallimlar ash'ariylik maktabining yirik namoyandalari sanaladi. Ash'ariylar zohiran o'zini mu'taziliylarga qarshi qo'yib, hanbaliylar bilan murosa qilishga intilgan. Shunday bo'lsa-da, dunyoqarashi bo'yicha mu'taziliylarning aql-idrokka asoslangan yo'lini davom ettirgan.

Kalom ilmining ikkinchi yirik maktabi – moturidiylik ham mustaqil tarzda taraqqiy etdi. Ash'ariylar maktabi asosan shofe'iyalar orasida tarqalgan bo'lsa, moturidiylik hanafiy mazhabi tarqalgan hududlarda ko'plab tarafdorlarga ega bo'ldi. Xususan, moturidiylik Movarounnahr musulmonlarining asosiy aqidasi aylandi.

Islom tarixini o'rganish jarayonida ko'plab olimlar kalom ilmida faoliyat olib borib, o'zlarining aqidaga oid asarlar yozganlarini ko'rish mumkin. Ulardan hanafiy mazhabi olimlaridan Abu Hafs Nasafiy "Aqida an-Nasafiyya", Abul Muin Nasafiy "Tabsirat al-adilla", Abu Ja'far Tahoviy "Aqida at-Tahoviyya"larni alohida sanab o'tish o'rinli.

TAHLIL VA NATIJALAR. Ushbu maqolada Kalom falsafasining bahs mavzulari o'zaro chog'ishtirish, ya'ni qiyoslash va tarixiylik metodi asosida tahlil qilib o'rganildi.

Kalom ilmida asosan islom ilohiyoti, Alloh Taoloning sifatleri, insonning yaratilishi, nubuvvat, oxirat, undagi mukofot va jazo kabi mavzularda bahs etiladi.

Teologiya dinlarning o'z aqidasi, ya'ni xudo to'g'risidagi o'z ta'limotlarining boshqa aqidalardan to'g'riroq ekanini isbotlashni maqsad qiladi. Jumladan, islom dini doirasida ilohiyot masalalarining alohida ko'rib chiqila boshlanishi, ya'ni kalom ilmining vujudga kelishi, 8-9-asrlarda jabariylar, qadariylar, mu'taziliylar, murji'iyalar kabi Allohning zoti-sifatleri, taqdir kabi masalalarda ixtiloflarni yuzaga keltirgan oqimlarning paydo bo'lishi natijasi edi. Bu holda sof aqidani yangi paydo bo'lgan ta'limotlardan asrash, uning to'g'riligini isbotlash zarurati paydo bo'lgandi. Holbuki, avvalgi asr olimlarining barchasi Kalom ilmi bilan shug'ullanishni "harom" va hattoki "kufr" deb hisoblashgan.

Umuman olganda, Kalomning asosiy vazifasi borliqning diniy-falsafiy asoslari va undan kelib chiqadigan ixtiyor erkinligi, tasodifiylik va zaruriylik, Xudoning sifatleri bahsi kabi masalalar hisoblanadi va Xudoning barcha sifatleri bilan birga mavjudligini falsafiy jihatdan asoslashga urinadi. Mazkur maqsadlarni amalga oshirish uchun birinchidan, Xudoning mavjudligini isbotlab berish, ikkinchidan, imkon qadar Xudoning tabiatini aniqlash va uchinchidan, Xudo – olam va Xudo – inson munosabatlerini ochib berish masalalarini hal qilish lozim bo'ladi[2.177].

Ma'lumki, insoniyat yaratilibdiki, doimo borliqning ilohiy yaratuvchisi – Xudo haqida ko'proq bilishga, unga yaqinlashishga urinadi. Mavjud barcha dinlarda, oz yoki ko'p miqdorda, Xudo haqidagi ta'limotning mavjudligi, mazkur mavzudagi bahslar antik davrdan to bugungi kunga qadar faylasuflarning asosiy mavzularidan biri ekani yuqoridagi fikrlarimizga isbot bo'lib xizmat qiladi. Mazkur masalalarni hal etishga urinishlar natijasida falsafiy teologiya tez suratlarda rivojlandi, uning bahs mavzulari ko'paydi. Oqibatda, bu bir necha falsafiy teologik maktablarning shakllanishiga olib keldi. Mazkur oqimlardan eng yiriklari sifatida teizm, deizm, panteizm, panenteizm kabi oqimlarni sanash mumkin. Mazkur yo'nalish, bir tomondan, Xudoning mavjudligini hech qanday dalil-isbotsiz qabul qiladigan klerikal doira vakillariga qarshi o'laroq yuzaga kelgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, faylasuflarga zid ravishda diniy olimlar tomonidan qo'llanilgan. Jumladan, islom olamida kalom ilmining paydo bo'lishi esa, ikkinchi toifaga misol bo'la oladi.

Kalom falsafadan bir necha jihatlari bilan ajralib turadi. Falsafa borliq tuzilishi, olamning paydo bo'lishi masalalarini fizik jarayonlar tahlili asosida o'rganadi. Bunga metafizik yondashuv deyiladi. Metafizika borliqning eng umumiy qonuniyatlarini, moddiy va ruhoni mavjudotlarni, materiyadan tashqaridagi olam (g'ayb olami) sir-sinoatlari yechimini mantiqiy tushuntirishga harakat qiladi. Kalom esa fizik jarayonlarni tahlil qilmaydi. Uning predmeti Alloh zoti va sifatleri, inson amallari, illat va fazilatlarining ilohiy manbalaridir. Shu yo'nalishda kalom ilmi falsafaga tegishli bo'lgan borliq tuzilishi, narsa va jismlarning yaratilishi muammolariga ham murojaat etadi. Biroq kalom ularni mistik dunyoqarash vositasida o'rganadi. Mistika ruh tajribasini bayon etadi, uning kechinmalariga, mushohadalariga mantiqiy javob berishga harakat qiladi. Faylasuf falsafiy asoslarga suyansa, mutakallim diniy hujjatlarga asoslanadi. Kalom o'z farazini mantiqiy mazmun va islom tamoyillariga muvofiq hujjatlar asosida ishlab chiqadi. O'sha paytlarda vahiy va amal, qudratli Alloh va notavon o'z mavjudot o'rtasidagi munosabatlarga oydinlik kiritish zarur edi.

Mu'taziliylar birinchi bo'lib, din masalalari, yangi paydo bo'lgan muammolarni hal qilishda mantiqqa suyanib ish ko'rdilar. Alloh adolati qanday amalga oshadi, yovuzlik qayerdan paydo bo'lgan, qabilidagi savollar oldin hech kimni qiziqtirmagan bolsa, bu masala mu'taziliylarning say'-harakati bilan kalom bahslarining bosh masalasiga aylandi. Mu'taziliylar Alloh adolati muqarrarligi, shafolat yo'qligi va do'zaxda mangu azob borligini targ'ib etdilar. Ular Alloh taqvorlarni munosib taqdirlashi, shu bilan birga, hidoyatdan adashganlarni jazo kutajagi hamda na payg'ambar va na avliyolarning shafoti yoki Alloh rahmi bo'lmasligi haqidagi g'oyalarni ilgari surdilar. Abbosiy xalifalar ularni qo'llab-quvvatladilar. Bundan ruhlangan mu'taziliylar din asoslari tahlilida yanada chuqurlashib ketdilar. Bu esa Qur'oni Karimni zohiriy idrok etuvchilar uchun katta muammolarni keltirib chiqardi[3.37].

Nazzom (vaf. 835) o'z qarashlarida "tab", ya'ni tabiat va "kumun" — hosilasi orqaligina bilish mumkin bo'lgan narsalarning asli Alloh hikmatiga taalluqliligi haqidagi tushunchalarni iste'molga kiritdi. U olamdagi barcha harakatlarni tabiat orqali, bevosita Allohga bog'lashga harakat qildi. Bu konsepsiyada Alloh tabiat hodisalariga muntazam aralashishga bo'lgan zaruratdan ozod deb tasavvur qilindi va shu bilan birga, uning bevosita hukmronligi saqlanib qoladi deyildi. Biroq, bunday qarash ilohiy qudratning cheksizligiga e'tiqodda bo'lgan Ibn Karrom (vaf.869) va uning izdoshlarini ham, xuddi shunday, insonning iroda erkinligiga egaligi haqidagi g'oya targ'ibotchilari Bishr va Abu Huzaylni ham qoniqtirmadi.

XULOSA. Kalom ilmi hozir ham musulmonlar yashaydigan ayrim mamlakatlarda e'tiborli ilmlar qatorida turadi. O'tmishda Kalom ilmida bahs qilingan mavzular bugun "eski Kalom ilmi" nomiga muqobil tarzda tug'ilgan "yangi Kalom ilmi" nomidan ko'ri boshlandi. Bu "yangi Kalom ilmi"ning o'z oldiga qo'ygan vazifasini neotomizm oqimi maqsadlariga o'xshatish mumkin. Zero, bu yangi Kalom ham xuddi neotomizm kabi din nuqtayi nazaridan dunyoga boqish falsafasini targ'ib qiladi. Va bu g'oyani mustahkamlash uchun materializmning dialektikasiga muqobil ravishda "yangicha ilmiy aslahalar" bilan qurollanib jangga kirishadi; imldagi nodir masalalarga diniy ta'limot nuqtayi nazaridan izoh berib, ilm va din o'zaro qarama-qarshi emasligini dalillar bilan isbotlashga harakat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sayid Husayn Nasr. Ilm va tamaddun dar islom. – Tehron., 1972. – B.334.
2. Ю.А. Кимелев. Философия религии: Систематический очерк. Москва: Издательский Дом Nota Bene, 1998. Ст. 177.
3. SH.Sirojiddinov. Islom falsafasiga kirish. Kalom ilmi. Toshkent. 2008.
4. Kurbanbayeva, M. Abu Rayhon Beruniy hayotiga doir ba'zi mulohazalar. Tamaddun nuri jurnali, 9(48), 2023. 64-66.

